

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHGA IVEN
TEKNOLOGIYASI ASOSIDA YO'NALTIRILGAN IJODIY MASHQLARDAN
FOYDALANISH**

To'rayeva Oygul Siroj qizi

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21213794>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishda IVEN texnologiyasi asosidagi ijodiy mashqlardan foydalanish metodikasi tahlil qilinadi. Maqolada IVEN texnologiyasining har bir komponenti mohiyati yoritilgan hamda ularning bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Taklif etilgan metodika tarbiyachilarni o'z kasbiy faoliyatlarida innovatsion, kreativ va samarali yechimlar topishga undash, ularda bolalar bilan ishlashda zarur bo'lgan empatiya, kommunikativlik va moslashuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: IVEN texnologiyasi, interaktiv, vizual, emotsional, noan'anaviy, bo'lajak tarbiyachi, kasbiy mahorat, ijodiy mashqlar, metodika, maktabgacha ta'lim, kompetentlik.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ, ОСНОВАННЫХ НА
ТЕХНОЛОГИИ IVEN, В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО
МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ**

Аннотация. В данной статье будет проанализирована методика использования творческих упражнений на основе технологии Ивен в повышении профессиональной компетентности будущих воспитателей, работающих в системе дошкольного образования. В статье освещается сущность каждого компонента технологии Ивен и обосновывается их значение для формирования профессиональной компетентности будущих педагогов. Предлагаемая методика направлена на то, чтобы побудить педагогов находить инновационные, творческие и эффективные решения в своей профессиональной деятельности, развивая в них такие качества, как сочувствие, коммуникативность и гибкость, необходимые при работе с детьми.

Ключевые слова: технология IVEN, интерактивная, визуальная, эмоциональная, нетрадиционная, будущий воспитатель, профессионализм, творческие упражнения, методика, дошкольное образование, компетентность

**ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRESCHOOL
TEACHERS THROUGH CREATIVE EXERCISES BASED ON IVEN TECHNOLOGY**

Annotation. This article analyzes the methodology for using creative exercises based on IVEN technology in improving the professional skills of future educators operating in the preschool education system. The article highlights the essence of each component of IVEN technology and substantiates their importance in the formation of professional competence of future educators. The proposed methodology is aimed at encouraging educators to find innovative, creative and effective solutions in their professional activities, developing qualities such as empathy, communicativeness and flexibility that are necessary when working with children.

Keywords: *iven technology, interactive, visual, emotional, unconventional, future educator, professional skills, creative exercises, methodology, preschool education, competence.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, maktabgacha ta'limda ham sifat va samaradorlikka erishish dolzarb vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy bo'g'ini bo'lgan tarbiyachilarning kasbiy mahorati, ularning ijodkorligi, bolalarga shaxsiy yondashuvni qo'llash qobiliyati ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Zamonaviy tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashuvchi, uning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga oluvchi, yangi g'oyalarni joriy etuvchi shaxs bo'lishi lozim. An'anaviy pedagogik usullar doimo ham bunday talablarga javob bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – IVEN texnologiyasi asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Ilmiy yangiligi shundaki, IVEN texnologiyasi tamoyillarini maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislari tayyorlash metodikasiga kompleks yondashuv tarzida integratsiyalash orqali, ularning kasbiy kompetentligini har tomonlama rivojlantirishga erishiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha ta'lim – inson shaxsining poydevori shakllanadigan muhim bosqichdir. Bu bosqichda bolaning aqliy, jismoniy, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish tarbiyachining bevosita vazifasidir. Bugungi kunda tarbiyachiga qo'yilayotgan talablar ancha yuqori: u bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali tashkil etishi, o'yin orqali o'qitish usullarini chuqur bilishi, ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatishi va doimiy ravishda o'z kasbiy mahoratini oshirishi kerak. Bunga erishish uchun pedagogik oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularda innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv, muammolarni noan'anaviy usullarda hal qilish qobiliyatini rivojlantirish zarur. IVEN texnologiyasi aynan shu ehtiyojlarga javob beruvchi samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik adabiyotlarda tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularda kreativlikni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. J. Bruner, L. Vygotskiy, J. Dewey kabi klassik pedagoglar ta'limda faollik, mustaqil fikrlash va ijtimoiy o'zaro ta'sirning ahamiyatini ta'kidlaganlar. Zamonaviy tadqiqotchilar (E. G'oziyev, N. Omonov, U. Madayev va boshqalar) ham pedagog kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, interfaol usullar va kompetentlikka asoslangan ta'lim tamoyillarining muhimligini asoslaganlar. Biroq, IVEN texnologiyasining har bir komponentini integratsiyalash orqali bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishga yo'naltirilgan kompleks metodika hali chuqur o'rganilmagan. Ushbu maqola shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

IVEN texnologiyasining nazariy asoslari. IVEN texnologiyasi pedagogik jarayonni yanada qiziqarli, samarali va bolalar rivojlanishiga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishni maqsad qilgan. Bu texnologiya bo'lajak tarbiyachilarda quyidagi asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi:

1. **Interaktiv komponent:** Faol ishtirok etish, o'zaro muloqot, hamkorlikda ishlash, fikr almashish, munozara va dialog orqali o'rganishni nazarda tutadi. Tarbiyachi interfaol muhit yaratish orqali bolalarning faolligini oshiradi, ularda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi.

2. **Vizual komponent:** Ko'rgazmali qurollar, rasmlar, videolar, sxemalar, jadvallar va boshqa tasviriy vositalar orqali ma'lumotni yetkazish va qabul qilish. Bu komponent bolalarning vizual idrokini rivojlantirish, ma'lumotni oson eslab qolish va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi materiallarni vizual jozibador qilib tayyorlashi kerak.

3. **Emotsional komponent:** Ta'lim jarayonida his-tuyg'ularni uyg'otish, empatiya, emotsional intellektni rivojlantirish. Bu komponent bolalarning his-tuyg'ularini tushunish, ularni boshqarish va boshqalar bilan emotsional aloqa o'rnatishda yordam beradi. Tarbiyachi bolalarning emotsional holatini hisobga olib, ularda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otishi lozim.

4. **Noan'anaviy komponent:** An'anaviy usullardan chekinish, kreativlik, yangi va original g'oyalarni ishlab chiqish, ijodiy yechimlar topish. Bu komponent tarbiyachida innovatsion fikrlashni, muammoli vaziyatlarga nostandart yondashishni va ta'lim-tarbiya jarayonini doimiy ravishda yangilab borishni talab qiladi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan ijodiy mashqlarni IVEN texnologiyasi tamoyillari asosida quyidagicha tashkil etish metodikasi taklif etiladi:

I. Interaktiv komponentga yo'naltirilgan mashqlar:

Bu mashqlar bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativlik, hamkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

"Vaziyatni hal qilamiz" rol o'yinlari: Talabalarga bolalar bog'chasida duch kelinishi mumkin bo'lgan murakkab vaziyatlar (masalan, bolalar o'rtasidagi konflikt, uyatchan bolani o'yinga jalb qilish, ota-onalar bilan munozara) beriladi. Ular vaziyat ishtirokchilari (tarbiyachi, bola, ota-ona) rolini ijro etib, uni hal qilish yo'llarini izlaydilar. Muhokama jarayonida eng samarali yechimlar tahlil qilinadi.

"Birgalikda hikoya yaratamiz" (Zanjir hikoya): Talabalar guruhlariga bo'linib, navbatma-navbat bittadan jumla qo'shib, bolalar uchun qiziqarli hikoya tuzadilar. Bu mashq tasavvur, tezkor fikrlash va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantiradi.

"Qiyinchiliklar o'yini": Talabalarga ma'lum bir didaktik o'yinni (masalan, "Koptokni ulotqirib raqam aytish") o'yin jarayonida kutilmagan qiyinchiliklar (masalan, "koptok yo'qoldi", "bola o'ynamoqchi emas") yuzaga kelganini tasavvur qilib, ularni qanday hal qilish bo'yicha interfaol yechimlar topish topshiriladi.

II. Vizual komponentga yo'naltirilgan mashqlar:

Ushbu mashqlar tarbiyachilarning vizual tafakkurini, estetik didini va didaktik materiallar tayyorlash mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

"Mavzuli burchak loyihasi": Talabalar guruh xonasi uchun ma'lum bir mavzuga (masalan, "Fasllar", "Kosmos", "Kasblar") oid vizual jihatdan jozibador va rivojlantiruvchi burchak loyihasini (maket, plakat yoki eskiz) tayyorlaydilar. Material tanlash, ranglar uyg'unligi va joylashtirish estetikasi muhokama qilinadi.

"Rasm orqali hikoya" (Vizual storytelling): Talabalarga bir nechta tasvirlar (rasmlar, fotolar) berilib, ular shu tasvirlar yordamida bolalar uchun tushunarli va qiziqarli ertak yoki

hikoya yaratishlari lozim. Tasvirlarning ketma-ketligi va ularning emotsional ta'siri muhim ahamiyatga ega.

"Didaktik qo'llanmalar dizayni": Talabalar o'zlari tanlagan ma'lum bir mavzu bo'yicha (masalan, "Harflar dunyosi", "Hayvonot olami") o'zlari yaratgan didaktik kartochkalar, plakatlar, domino yoki loto o'yinlarini namoyish etib, ularning pedagogik ahamiyatini tushuntiradilar.

III. Emotsional komponentga yo'naltirilgan mashqlar:

Bu mashqlar bo'lajak tarbiyachilarda empatiya, emotsional intellektni rivojlantirish va bolalarning his-tuyg'ularini tushunishga qaratilgan.

"His-tuyg'ular galereyasi": Talabalar turli xil his-tuyg'ularni (xursandchilik, g'azab, qo'rquv, hayrat) ifodalovchi rasmlar chizadilar yoki ularni mimika va jestlar orqali ko'rsatadilar.

Keyin har bir his-tuyg'u muhokama qilinib, bolalarga ularni qanday boshqarishni o'rgatish usullari tahlil etiladi.

"Empatiya mashqlari": Talabalarga qisqa muddatga o'zlarini bolaning o'rniga qo'yish (masalan, xonada bolalar bo'yi darajasidan harakatlanish, bolalar o'yinini o'ynash) va bu jarayonda yuzaga kelgan his-tuyg'ularini, tushunchalarini muhokama qilish taklif etiladi.

"Musiqqa orqali his-tuyg'ularni ifodalash": Turli xildagi musiqiy asarlar tinglanadi.

Talabalar tinglagan musiqaning ularda uyg'otgan his-tuyg'ularini so'zlar, ranglar yoki harakatlar orqali ifodalaydilar. Bu mashq musiqiy didni va emotsional xabardorlikni oshiradi.

IV. Noan'anaviy komponentga yo'naltirilgan mashqlar:

Bu mashqlar bo'lajak tarbiyachilarda innovatsion fikrlash, kreativ muammo yechish va nostandart yechimlar topish qobiliyatini shakllantiradi.

"Cheklangan resurslar bilan ijodkorlik": Talabalarga bo'sh idishlar, qog'oz qoldiqlari, tugmalar, ip, latta bo'laklari kabi "keraksiz" materiallar berilib, ulardan bolalar uchun yangi, qiziqarli didaktik o'yinchoq yoki qo'llanma yaratish topshiriladi. Bu mashq resurslardan samarali foydalanish va kreativ muammoli vaziyatlarni yechishni o'rgatadi.

"Muammoli vaziyatlarga kreativ yechimlar": Talabalar guruhlariga bo'linib, bolalar bog'chasida duch kelinadigan umumiy muammolarga (masalan, bolalar diqqatini jamlay olmasligi, o'zaro janjal, tartibga rioya qilmaslik) kamida 5-10 ta noan'anaviy, ijodiy yechim topishlari kerak. "Aqlli yomg'ir" (Brainstorming) usuli qo'llaniladi.

"Ertangi kun darsi" (Futuristik dars loyihasi): Talabalar kelajak 10-15 yildan so'ng bolalar bog'chasi darsi qanday bo'lishi mumkinligini tasavvur qilib, shu asosda bitta dars mashg'uloti loyihasini (mavzu, usul, texnologiya, vositalar) yaratadilar. Virtual reallik, sun'iy intellekt elementlari kabi texnologiyalarni integratsiyalashga e'tibor beriladi.

Amaliy tavsiyalar va muhokama. Ushbu metodikani amaliyotga joriy etishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

1. **Integrativ yondashuv:** Mashqlarni shunday tuzish kerakki, ular IVEN texnologiyasining bir nechta komponentlarini birlashtirsin. Masalan, rol o'yinida (interaktiv) his-tuyg'ularni ifodalash (emotsional) va vizual materiallardan (vizual) foydalanish mumkin.

2. **O'yin shaklida tashkil etish:** Mashqlarni bolalar o'yini kabi erkin va ijodiy muhitda o'tkazish talabalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

3. **Refleksiya va muhokama:** Har bir mashqdan so'ng talabalar o'z tajribalari, topgan yechimlari, yuzaga kelgan qiyinchiliklar va his-tuyg'ulari haqida fikr almashishlari shart. Bu ularning tanqidiy fikrlashini va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. **Pedagogik nazorat va yo'naltirish:** O'qituvchi mashqlar jarayonini nazorat qilib, talabalarga to'g'ri yo'nalish berishi, ularning g'oyalari rag'batlantirishi va konstruktiv fikr-mulohazalar bildirish orqali ularni rivojlantirishi lozim.

Ushbu metodika orqali bo'lajak tarbiyachilarda quyidagi kasbiy mahoratlar sezilarli darajada oshadi:

-Innovatsion pedagogik fikrlash: An'anaviy cheklovlardan chiqib, yangi g'oyalarni yaratish va joriy etish.

-Kommunikativ kompetentlik: Bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o'rnatish.

-Emotsional intellekt: O'zining va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, ularni boshqarish va empatiya ko'rsatish.

-Vizual-didaktik mahorat: Ko'rgazmali va rivojlantiruvchi materiallarni samarali tayyorlash va ulardan foydalanish.

-Kreativ muammo yechish: Pedagogik vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarga nostandart va samarali yechimlar topish.

-Jamoaviy ishlash qobiliyati: Hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash, tajriba almashish.

IVEN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN IJODIY MASHQ NAMUNALARI

"Vaziyatni hal qilamiz" rol o'yinlari	
Tavsif	Tarbiyachilarga bolalar bog'chasidagi turli murakkab vaziyatlar (masalan, bolalar o'rtasidagi janjal, o'yinchoq talashish, uyatchan bolani o'yinga jalb qilish, ota-onalar bilan qiyin suhbat) beriladi. Ular vaziyatni hal qilish uchun tarbiyachi, bola yoki ota-ona rolini ijro etadilar
IVEN aloqasi	Faol muloqot, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, empatiyani shakllantirish
Rivojlanadigan mahorat	Muammoli vaziyatlarni hal qilish, kommunikatsiya, empatiya, tezkor qaror qabul qilish, konflikt menejmenti
"Birgalikda hikoya yaratamiz" (Zanjir hikoya)	
Tavsif	Guruhdagi har bir tarbiyachi oldingi ishtirokchining gapini davom ettirib, o'zining jumlasini yoki g'oyasini qo'shib, umumiy hikoya yaratadi. Bu hikoya bolalarga mo'ljallangan bo'lishi kerak
IVEN aloqasi	Kollektiv ijodkorlik, muloqot, tasavvur
Rivojlanadigan mahorat	Fikrni tez shakllantirish, tinglash, g'oyalarni bog'lash, ijodiy tafakkur, jamoaviy ish
"Mening sevimli o'yinim" (O'yin yaratish)	
Tavsif	Tarbiyachilar guruhlariga bo'linib, bolalar uchun yangi, qiziqarli va rivojlantiruvchi o'yin yaratadilar. So'ngra o'z o'yinlarini taqdim etib, boshqa guruhlar bilan birgalikda o'ynab ko'radilar

IVEN aloqasi	Amaliyot, o'yin orqali o'rganish, tajriba almashish
Rivojlanadigan mahorat	O'yinlarni loyihalash, qoidalarni shakllantirish, ijodkorlik, taqdimot ko'nikmalari
"Mavzuli burchak loyihasi" (Maket yasash)	
Tavsif	Tarbiyachilar bolalar bog'chasi guruh xonasi uchun ma'lum bir mavzuga (masalan, "Tabiat burchagi", "Kitoblar dunyosi", "Quruvchilik burchagi") mos keladigan vizual jozibador va rivojlantiruvchi burchak loyihasini (maket yoki eskiz) tayyorlaydilar. Materiallar, ranglar, joylashtirish kabi jihatlariga e'tibor beriladi.
IVEN aloqasi	Amaliy loyihalash, estetik didni rivojlantirish, ranglar va shakllar bilan ishlash
Rivojlanadigan mahorat	Dizayn, makonni tashkillashtirish, vizual idrokni rivojlantirish, kreativ fikrlash, bolalar ehtiyojini hisobga olish
"Rasm orqali hikoya" (Vizual storytelling)	
Tavsif	Tarbiyachilarga bir nechta rasmlar yoki kartochkalar beriladi. Ular shu rasmlar yordamida bolalar uchun tushunarli va qiziqarli hikoya yaratadilar. Rasmlarni joylashtirish tartibi ham muhim
IVEN aloqasi	Tasviriy vositalar orqali ifoda, tasavvur, mantiqiy bog'liqlik
Rivojlanadigan mahorat	Vizual vositalardan foydalanish, ijodiy hikoya yaratish, ketma-ketlikni saqlash, mantiqiy fikrlash
"Didaktik qo'llanmalar dizayni"	
Tavsif	Tarbiyachilar ma'lum bir o'quv mavzusi (masalan, "Raqamlar dunyosi", "Mevazor", "Hayvonlar") bo'yicha o'zlari tayyorlagan didaktik qo'llanmalar (kartochkalar, plakatlar, domino o'yinlari) namoyish etadilar va ularning pedagogik ahamiyatini tushuntiradilar
IVEN aloqasi	Vizual-pedagogik materiallar yaratish, amaliy dizayn
Rivojlanadigan mahorat	Pedagogik dizayn, ijodkorlik, qo'lda ishlash, material tanlash, yosh xususiyatini hisobga olish
"His-tuyg'ular galereyasi"	
Tavsif	Tarbiyachilar turli xil his-tuyg'ularni (xursandchilik, g'azab, hayrat, qayg'u, qo'rquv) ifodalovchi rasmlar chizadilar yoki shunday mimika va jestlarni ko'rsatadilar. Keyin har bir rasm/mimika ortidagi his-tuyg'u haqida suhbatlashiladi, bolalar bu his-tuyg'ularni qanday boshqarishlari mumkinligi muhokama qilinadi
IVEN aloqasi	Emotsiyalarni vizual va ekspressiv ifodalash, ularni anglash
Rivojlanadigan mahorat	Emotsional intellekt, o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, empatiya, bolalarga emotsiyalarni boshqarishda yordam berish
"Empatiya mashqlari" (Bir kunlik bolakay)	
Tavsif	Tarbiyachilar qisqa vaqt davomida (masalan, 15-20 daqiqa) bolaning holatini tasavvur qilib, o'zlarini uning o'rniga qo'yishadi. Masalan, xona bo'ylab "bola bo'yi"dan turib harakatlanish, bolalar bilan o'yin o'ynash

	yoki ularning ovozini taqlid qilish. Keyin ular o'zlarida paydo bo'lgan his-tuyg'ular va tushunchalar haqida o'rtoqlashadilar
IVEN aloqasi	Empatiya, his-tuyg'ularni sezish, bolaning dunyosiga kirib borish
Rivojlanadigan mahorat	Empatiya, bolaning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish, pedagogik yondashuvni yaxshilash.
"Musika terapiyasi daqiqalari"	
Tavsif	Turli xil musiqiy asarlar (sekin, tez, tinchlantiruvchi, jo'shqin) tinglanadi. Tarbiyachilar bu musika ularda qanday his-tuyg'ular uyg'otganini so'zlar, ranglar yoki harakatlar orqali ifodalaydilar. Bu mashq bolalarga musiqani qanday tanlash va undan foydalanishni o'rgatishga yordam beradi
IVEN aloqasi	Emotsional ifoda, musika orqali hissiyotlarni boshqarish
Rivojlanadigan mahorat	Musiqiy did, emotsional xabardorlik, stressni boshqarish usullarini o'rganish, bolalar uchun musika terapiyasi elementlarini qo'llash
"Cheklangan resurslar bilan ijodkorlik"	
Tavsif	Tarbiyachilarga ma'lum miqdordagi "keraksiz" materiallar (masalan, bo'sh idishlar, qog'oz qoldiqlari, tugmalar, ip, latta bo'laklari) beriladi. Ular shu materiallardan foydalanib, bolalar uchun yangi didaktik o'yinchoq yoki qo'llanma yaratadilar.
IVEN aloqasi	Resurslarni samarali ishlatish, innovatsion yondashuv, kreativ muammoli vaziyat
Rivojlanadigan mahorat	Resurslardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodkorlik, ekologik ong, iqtisodiy samaradorlik
"Muammoli vaziyatlarga kreativ yechimlar" (Brainstorming):	
Tavsif	Tarbiyachilarga bolalar bog'chasida duch kelinadigan umumiy muammolar (masalan, bolalarning diqqatini jamlay olmasligi, kun tartibiga rioya qilmasligi, o'zaro kelishmovchiliklar) beriladi. Ular guruh bo'lib, bu muammolarga kamida 5-10 ta noan'anaviy, ijodiy yechim topishlari kerak. "Aqli yomg'ir" (Brainstorming) usulidan foydalaniladi
IVEN aloqasi	Ijodiy muammo yechish, g'oyalar generatori, innovatsion fikrlash
Rivojlanadigan mahorat	Kreativ muammo yechish, g'oyalar ishlab chiqarish, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish
"Ertangi kun darsi" (Futuristik dars loyihasi):	
Tavsif	Tarbiyachilar kelajak 10-15 yildan so'ng bolalar bog'chasi darsi qanday bo'lishi mumkinligini tasavvur qilib, shu asosda bitta dars mashg'uloti loyihasini (mavzu, texnologiya, usullar) yaratadilar. Ular kelajak texnologiyalarini (virtual reallik, sun'iy intellekt elementlari va boshqalar) hisobga olishlari mumkin
IVEN aloqasi	Innovatsion tafakkur, uzoqni ko'ra bilish, kelajak texnologiyalaridan xabardorlik
Rivojlanadigan mahorat	Kelajakni bashorat qilish, innovatsion pedagogik yondashuvlar, texnologik savodxonlik, loyihalash

Bu ijodiy mashqlarni IVEN texnologiyasi asosida qo'llash orqali bo'lajak tarbiyachilar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydilar, balki ularni amaliyotda qo'llash, innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish, bolalarning ehtiyojlarini chuqurroq anglash va samarali pedagogik faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradilar.

Xulosa. IVEN texnologiyasi asosidagi ijodiy mashqlardan foydalanish metodikasi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bu metodika ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lashga, kreativ fikrlashini rivojlantirishga, emotsional intellektini shakllantirishga va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Natijada, zamonaviy talablarga javob beruvchi, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlay oladigan malakali va ijodkor tarbiyachilar etishib chiqadi.

Kelajakda ushbu metodikaning amaliy samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali yanada chuqurroq o'rganish va uning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Альтшуллер Г.С. Найти идею: Введение в ТРИЗ – теорию решения изобретательских задач. – М.: Альпина Паблишер, 2017.
2. Bruner, J. S. (1960). The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Выготский, Л. С. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Noshir, 2010.
5. Madayev U.R. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Omonov N.T. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016.
7. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
8. Solso, R. L. (1998). Cognitive Psychology (5th ed.). Allyn & Bacon.